KICHIK BIZNES SUBEKTLARIDA BERILAYOTGAN SOLIQ IMTIYOZLARI VA SOLIQ SIYOSATI

Orziqulov Ilyos Ixtiyor o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Received: 16.08.2025
Revised: 18.08.2025
Accepted: 19.08.2025
Key words:
kichik biznes, soliq imtiyozlari, soliq siyosati, soliq tartiblari, soliq yengilliklari, biznes rivojlanishi, iqtisodiy barqarorlik, soliq bazasi, iqtisodiy siyosat..

Abstract
Ushbu maqolada kichik biznes subyektlariga taqdim etilayotgan soliq imtiyozlari va soliq siyosatining roli hamda samaradorligi tahlil qilinadi. Kichik biznesni rivojlantirishda soliq imtiyozlarining iqtisodiy ta’siri, ularning turlari va qo‘llanilish mexanizmlari o‘rganiladi. Shuningdek, soliq siyosatining kichik biznes subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Maqola kichik biznesning barqaror rivojlanishi va soliq bazasini kengaytirish nuqtai nazaridan soliq imtiyozlari siyosatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini sifatidagi o‘rnini qator iqtisodchi olimlar o‘z ilmiy asarlarida hamda tadqiqot ishlarida o‘rganganlar. Jumladan, amerikalik iqtisodchi Dj.Styuart Mill: kichik biznesning xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi: kichik biznes, ko‘pchilik yangi mahsulot yoki xizmat turining bunyod etilishi uchun boshlang‘ich ishlab chiqarish nuqtasidir; kichik biznes ixtisoslashgan mahalliy ehtiyojlarini qondirishga yaxshi moslashgan bo‘ladi; kichik biznes o‘z iste’molchisini shaxsan bilishi muhim bo‘lgan xizmat turlarini taklif etadi (Dj.S.Mill «Osnovi politicheskoy ekonomii i nekotoriye aspekti ix prilojeniya k sotsialnoy filosofii» (1848).).

Iqtisodchi olim L.Gurovning fikricha “Kichik biznes quyidagi afzalliklarga ega: ustun darajada iqtisodiy o‘sishning sur’atlarinibelgilaydi, moddiy, moliyaviy va kadrlar resurslarining samarali taqsimlanishiga yordam beradi, ish o‘rinlarini vujudga keltiradi, yangi ish joylarni tashkil etish yirik korxonalarga qaraganda

ancha kam xarajat talab qiladi" (Gurov L. Kichik tadbirkorlikning yangi imkoniyatlari.// Bozor, pul va kredit. – T.: 1999. – №7. –. 32 b.).

Akademik S.G'ulomovning ta'kidlashicha: Kichik biznes va tadbirkorlik har qanday sharoitda: iqtisodiy tushkunlikda ham, inflyatsiya davrida ham, kreditlar foizi o'ta yuqori bo'lganda ham, zarur infratuzilmasiz kelajagi noma'lum hollarda ham, xavf-xatar qanchalik yuqori bo'lishiga qaramay yashayveradi (G'ulomov S. Tadbirkorlik va kichik biznes.-T.: «Sharq», 2002-9 b.).

Mahalliy iqtisodchi olim A.O'lmasov "Kichik biznes – kishilar (mulkchilik) subektlarining moddiy va pul mablag'larini (kapitalini) amalda xo'jalik oborotiga, daromad topishga mo'ljallangandir" deb ta'kidlagan (O'lmasov A, Sharifxo'jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik.-T.: «Mexnat», 1999- 243 b.).

Shuningdek, YO.Abdullayev tadbirkorlikka – qonun hujjatlariga muvofiq, daromad yoki foyda olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish yo'li bilan tavakkal qilib, o'z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyat" (YO.Abdullayev va boshkalar.Tadbirkor yon daftari: kichik biznes va tadbirkorlik.T: "Mehnat", 1999-12 b.) sifatida tarif berganlar.

Professor SH.Toshmatov "Kichik biznes korxonalariga ta'rif berib, soliqqa tortish nuqtai-nazaridan yondashgan holda, ularga huquqiy maqom berishda, har bir davlat o'ziga xos tarzda yondashishga harakat qiladi (SH.A. Toshmatov. Kichik tadbirkorlik subektlarini soliqqa tortish asoslari . MonografiY. –T.: "Moliya", 2012. –22 b.)"- deb fikr bildirganlar.

Yuqoridagilardan keltirilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, tadbirkorlik tushunchasi yuzasdan yagona yondashuv mavjud emas. Bizningcha, tadbirkor va biznesmenning faoliyati natijalari turlicha tugallanadi. Tadbirkor o'z qobiliyati hisobiga tadbirkorlik daromadini olsa, biznesmen sarflagan

kapitalidan foyda oladi.

Tadbirkorlik jamiyat rivoji va iqtisodiyot uchun juda muhim ahamiyatkasb etadi. O‘zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridayoq:

«Tadbirkorlik - iqtisodiy tanglikdan olib chiqishning, iqtisodiy taraqqiyotga olib borishning asosiy iqtisodiy vositasi, taraqqiyot lokomotivi» - deb ta’kidlandi (Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz tarakkiyoti va xalkimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. / / Xalk suzi, 2010 yil 29 yanvar.). Shuning uchun ham tadbirkorlikning rivojlanishi va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan, shuningdek davlat qo‘llab- quvvatlashi va himoyasiga muhtoj bo‘lgan tadbirkorlik - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sanaladi.

Zamonaviy g‘arb adabiyotida ham tadbirkorlik foyda olish maqsadini ko‘zlab xo‘jalik yuritish san’ati, iqtisodiy va tashkiliy ijodkorlik, tashabbusning erkin namoyon bo‘lishi, novatorlik, xavf-xatarga doim tayyor bo‘lish va shu kabi ko‘p qirrali faoliyat deb qaraladi.

Hozirgi kunda iqtisodiy tafakkurimizda, aniqrog‘i boshqarish nazariyasi ham tadbirkorlik faoliyatini shunday tushunish tomon bormoqda. Shu bilan birga, tovarni ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish haqida gap ketganda, so‘zsiz shaxsiy mahorat, zehn va qiziqish asosiy rol o‘ynaydi. Shu sababli respublikada tadbirkorlikka yo‘l ochuvchi va uning subektlari huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi birinchi qonuniy hujjatda bu faoliyat – turli mulkiy ma’suliyat ostida foyda olish uchun ayrim fuqarolar va fuqaro uyushmalarining mustaqil tashabbuskorlik faoliyati sifatida ta’riflanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligi- ning kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida: “Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi

ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir" (O‘zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida"gi Qonuni. Toshkent. Xalq so‘zi gazetasi. 2012 yil 2 may.) deya e'tirof etilgan.

Yuqoridagi ta'rif va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va mazkur soha doirasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borgan iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlaridan kelib chiqib ilmiy ishimizda quyidagicha ta'rif berishni lozim topdik: "Tadbirkorlik faoliyati – foyda olish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarning tavakkalchilik hamda mulkiy javobgarlik asosida, amaldagi qonunlar doirasida o‘z tashabbusi bilan iqtisodiy samarali faoliyat ko‘rsatishidir".

Keltirgan ta'rif shu paytga qadar keltirilgan ta'riflardan farqli jihatlariga to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. Bizningcha, amaldagi qonunchilikda keltirilgan tadbirkorlik faoliyati subektlari emas balki, yuridik va jismoniy shaxslar deb yuritish maqsadga muvofiq. Chunki, soliqqa tortish maqsadida tadbirkorlik subektlari asosan ikki guruh,ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga bo‘linadi.

Shu bilan birgalikda, keltirgan ta'rifimizning ahamiyatli yana bir jihatiga e'tiborni qaratamiz. Bizning ta'rif asosan katta e'tiborni tadbirkorlik subektlari(yuridik va jismoniy shaxslar)ning iqtisodiy samarali faoliyat ko‘rsatishiga qaratganmiz. Chunki, tadbirkorlik subektlari iqtisodiy samarali faoliyatni amalga oshirgan taqdirdajamiyat hamda o‘z manfaatlarini to‘laqonli darajada ta'minlagan hisoblanadi. Har qanday tadbirkorlik faoliyatini yuritish jarayonida eng katta e'tiborni yuqori kafolatlangan iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga e'tiborni qaratish lozim.